



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 11-noyabr

630-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 7-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida” 2024-yil 5-avgustdagi O‘RQ-937-son Qonuni ijrosini Namangan viloyatida ta’minlash chora-tadbirlari haqida”gi 543-6-0-Q/24-son qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi O‘RQ-937-son Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mulq huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo‘l qo‘ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 24-avgustdagi PF-198-son Farmoni hamda shu mazmundagi viloyat hokimining 2024-yil 7-noyabrdagi 543-6-0-Q/24-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 7-noyabrdagi 543-6-0-Q/24-son qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

o‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish bilan bog‘liq masalalarni muvofiqlashtirib boruvchi tuman ishchi guruhi tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Xatlov jarayonlari yakunlangan mahallalar fuqarolar yig‘ini bo‘yicha rasmiylashtiriladigan dalolatnomani tasdiqlovchi namunaviy ishchi guruh tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (A.Abdusalomov, H.Boylarov), O‘zbekiston Mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi (O.Qodirov), MFY raislari va sektor rahbarlariga:

tasdiqlangan reja – jadval asosida mahallalarda o‘tkaziladigan xatlov ishlariga jalb etilgan mas’ul xodimlarni ko‘chmas mulk obyektlariga kirish uchun sharoit yaratish, o‘lchov ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga, ularning xavfsizligini ta’minlashga ko‘maklashish;

fuqarolar tomonidan o‘lchov ishlarini amalga oshirishga qarshilik ko‘rsatish holatlarida ularga qonuniy tushuntirishlar bergan holda xatlovga jalb etilgan mas’ullarga amaliy yordam ko‘rsatish;

egasi aniqlanmagan ko‘chmas mulk obyektlarining egalari o‘ld ma’lumotlarga aniqlik kiritishga ko‘maklashish;

mahalla raisi, profilaktika inspektorlari, hokim yordamchilari va ko‘cha, mahalla faollarini jalb etgan holda, joylarda tashkil etiladigan sayyor qabullarda, uchrashuvlarda, ommaviy tadbirlarda fuqarolarga qonunning mazmun mohiyatini to‘g‘ri tushuntirish bo‘yicha targ‘ibot - tashviqot ishlarini amalga oshirish vazifalari yuklatilsin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (A.Abdusalomov, H.Boylarov), Kadastr agentligi tuman bo‘limi (A.Shodmonov) har oy yakuni bilan tasdiqlangan reja – jadval asosida mahallalarda o‘tkaziladigan xatlov ishlari holatini tanqidiy tahlil etgan holda hokimlik soati, apparat yig‘ilishlariga axborot kiritib borsin.

5. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (A.Abdusalomov, H.Boylarov) har chorak yakuni bilan xatlov ishlariga mas’uliyatsizlik bilan yondoshgan rahbar – xodimlarga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo‘llash yuzasidan taklif kiritib borsin.

6. Tuman hokimligining axborot xizmati (Sh.Kenjayeov) tumandagi ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali tasdiqlangan reja – jadval asosida mahalla fuqarolar yig‘inlarida o‘tkaziladigan xatlov jarayonlarini olib borilishini muntazam ravishda, haftada bir martadan kam bo‘lmagan davriylikda yoritib borsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Abdusalomov va tuman hokimining o‘rinbosari H.Boylarov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov

Mingbuloq tuman hokimining
2024-yil 11-noyabrdagi
630-6-81-Q/24-son qaroriga
1-ilova

**O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish bilan bog‘liq masalalarni ijrosini ta’minlovchi tuman
ISHCHI GURUH TARKIBI**

T/r	F.I.Sh		Lavozimi
1.	A.Mansurov	-	Tuman hokimi – 1-sektor rahbari, <i>Ishchi guruh rahbari</i>
2.	U.Akbarov	-	Tuman prokurori – 2-sektor rahbari, <i>Ishchi guruh rahbari o‘rinbosari</i>
3.	D.Karimov	-	Tuman IIB boshlig‘i – 3-sektor rahbari, <i>Ishchi guruh rahbari o‘rinbosari</i>
4.	J.Anvarov	-	Tuman DSI boshlig‘i – 4-sektor rahbari, <i>Ishchi guruh rahbari o‘rinbosari</i>
5.	A.Shodmonov	-	Kadastr agentligi tuman bo‘limi boshlig‘i, <i>Ishchi guruh rahbari o‘rinbosari</i>
6.	H.Boylarov	-	Tuman hokimining o‘rinbosari
7.	A.Qodirov	-	Tuman adliya bo‘limi boshlig‘i
8.	O.Qodirov	-	O‘zbekiston Mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi boshlig‘i
9.	A.Xakimov	-	Tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i
10.	X.Inamov	-	O‘zbekiston Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari tuman Kengashi raisi
11.	A.Xudoyberdiyev		Tuman qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i
12.	Z.Axmadjonov	-	Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i
13.	Lavozimiga ko‘ra	-	Tuman sektor kotiblari
14.	J.Esonaliyev	-	Davlat kadastrlari palatasi tuman filiali boshlig‘i, <i>Ishchi guruh kotibi</i>

Izoh: ishchi guruh a’zolari boshqa ishga o‘tgan yoki lavozimdan ozod etilgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangi tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish yuklatilgan shaxslar kiritiladi.

Mingbuloq tuman hokimining
2024-yil 11-noyabrdagi
630-6-81-Q/24-son qaroriga
2-ilova

**Xatlov jarayonlari yakunlangan mahallalar fuqarolar yig'ini bo'yicha rasmiylashtiriladigan
dalolatnomani tasdiqlovchi
NAMUNAVIY ISHCHI GURUH TARKIBI**

T/r	F.I.Sh		Lavozimi
1.	Lavozimiga ko'ra		Mahalla fuqarolar yig'ini raisi
2.	Lavozimiga ko'ra		Mahalla profilaktika inspektori
3.	Lavozimiga ko'ra	-	Mahalla soliq inspektori
4.	Lavozimiga ko'ra	-	Mahalladagi hokim yordamchisi
5.	Lavozimiga ko'ra	-	Kadastr yig'ma jildlarni tayyorlash sho'basida kadastr muhandisi
6.	Lavozimiga ko'ra	-	Mulkdor yoki foydalanuvchi